O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

QURITILGAN ANJIR

(UNECE DDP-14:2004, IDT)

Rasmiy nashr

O‘zbekiston standartlar instituti
Toshkent

STANDARTLAR INSTITUTI #TWY716KLBM - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

So‘zboshi

1 O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan **ISHLAB CHIQILDI.**

2 O‘zbekiston standartlar institutining 2026-yil 21-iyuldagi 26/XSt-26-sonli buyrug‘i bilan **TASDIQLANDI.**

3 Ushbu standart UNECE DDP-14:2004 “DRIED FIGS” xalqaro standartiga aynan o‘xshash.

4 DASTLABKI AMALGA KIRITILISHI

Ushbu milliy standart va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarida chop etiladi.

Ushbu standartni O‘zbekiston hududida rasmiy tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishlidir

STANDARTLAR INSTITUTI #TWY716KLBM - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati standartlari bo‘yicha Ishchi guruh

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasi (UNECE) Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati standartlari bo‘yicha Ishchi guruhi tomonidan ishlab chiqilgan tijorat sifati standartlari xalqaro savdoni rivojlantirishga, yuqori sifatli ishlab chiqarishni rag‘batlantirishga, rentabellikni oshirishga hamda iste’molchilar manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi. UNECE standartlaridan hukumatlar, ishlab chiqaruvchilar, savdo tashkilotlari, import qiluvchilar va eksport qiluvchilar, shuningdek boshqa xalqaro tashkilotlar foydalanadi. Ushbu standartlar yangi meva va sabzavotlar, quruq va quritilgan mahsulotlar, urug‘lik kartoshka, go‘sht, kesilgan gullar, tuxum va tuxum mahsulotlari kabi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining keng turini qamrab oladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining har qanday a’zosi Ishchi guruh faoliyatida teng huquqli asosda ishtirok etishi mumkin. Qishloq xo‘jaligi standartlari haqida batafsil ma’lumot olish uchun quyidagi http://www.unece.org/trade/agr/welcome.html veb-saytimizga tashrif buyuring.

Ushbu standartni talqin qilish yoki qo‘llashda tushunmovchiliklar yuzaga kelganda standartning asli yozilgan tillarining biridan foydalanish tavsiya etiladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #TWY716KLBM - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

QURITILGAN ANJIR

СУШЁНЫЙ ИНЖИР

DRIED FIGS

Amalga kiritish sanasi 1.08.2026-y.

I. Mahsulot ta’rifi

Ushbu standart Ficus carica domestica L. navli madaniy anjir daraxtining pishib yetilgan mevalaridan quritilgan hamda bevosita iste’mol qilishga mo‘ljallangan anjirlarga nisbatan qo‘llaniladi. Ushbu standart qayta ishlashga mo‘ljallangan quritilgan anjirlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

II. Sifatga oid talablar

Ushbu standartning maqsadi tayyorlash va qadoqlash jarayonidan keyingi eksport nazorati bosqichida quritilgan anjirga qo‘yiladigan sifat talablarini belgilashdan iborat.

A. Minimal talablar

(i) Har bir nav uchun maxsus qoidalarga rioya qilgan holda, barcha navlardagi quritilgan anjir quyidagilarga mos kelishi kerak:

- butun, bundan anjirning band qismi va ko‘zchasi (ostiolum) uchlari kesilgan bo‘lishi shuningdek sotish va ishlov berish talablariga ko‘ra (masalan, qatlam hosil qilish uchun) mevaning o‘zi kesilgan bo‘lishi mumkin;
- sifatli, ya’ni mahsulot chirish yoki iste’molga yaroqsiz holga keltiradigan darajadagi buzilish belgilariga ega bo‘lmasligi kerak;
- ortiqcha tashqi namlikdan xoli;
-begona hid va (yoki) ta’mdan xoli; [1]
- rivojlanishining har qanday bosqichidagi tirik hasharotlar yoki kanalardan xoli fumigatsiya yoki boshqa usullar bilan zararsizlantirilgan bo‘lishi kerak;

Ko‘rsatilgan ruxsat etilgan og‘ishlarni hisobga olgan holda, ular quyidagicha bo‘lishi kerak:

---

[1] *Oltingugurt dioksidining (SO_2) yengil hidi yot hid hisoblanmaydi.*

[2] *Shakar yoki un kabi ingrediyentlar yot moddalar hisoblanmaydi va ular import qiluvchi mamlakat qonunchiligiga muvofiq ishlatilishi mumkin.*

Rasmiy nashr

STANDARTLAR INSTITUTI #TWY716KLBM - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

- shikastlangan, quyoshda kuygan, yorilgan yoki shikastlangan mevalardan xoli; [2]
- toza, ko‘zga ko‘rinadigan har qanday yot moddalardan amalda xoli;
- hasharotlar, kanalar yoki boshqa parazitlar yetkazgan ko‘zga ko‘rinadigan zararlardan xoli;
- mog‘or va bijg‘ish belgilaridan xoli;
- hasharotlar, qurtlar, kanalar yoki boshqa parazitlardan xoli.

(ii) Quritilgan anjirning namlik darajasi 26 foizdan oshmasligi kerak, agar import qiluvchi mamlakat qonunchiligiga muvofiq tegishli konservantlar bilan ishlov berilgan hollarda esa bu ko‘rsatkich 30 foizdan oshmasligi lozim. [3] [4].

Quritilgan anjirning holati va yetilganlik darajasi shunday bo‘lishi kerakki, ular:
- tashish va qayta ishlash jarayonlariga chidamlik;
- belgilangan manzilga qoniqarli holatda yetib borishi

(iv) Agar anjir konservantlar yoki zararkunandalardan zararsizlantirish uchun mo‘ljallangan preparatlar bilan bu import qiluvchi mamlakat qonunchiligiga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

B. Tasniflash

Quritilgan anjir, jumladan qo‘lda shakl berilgan quritilgan anjirlar o‘z sifatiga ko‘ra uchta navga tasniflanadi:

(i) Oliy nav

Ushbu navga mansub quritilgan anjir yuqori sifatli bo‘lishi kerak. Ular o‘z navi va/yoki tijorat turiga xos xususiyatlarga ega bo‘lishi lozim. Rang va hajm jihatidan ular bir xil bo‘lishi kerak. Ular ruxsat etilgan me’yorlar doirasida nuqsonlardan amalda xoli bo‘lishi kerak. Mahsulotning umumiy ko‘rinishiga, sifatiga, saqlanishiga (yaroqlilik muddatiga) yoki qadoqdagi taqdimotiga putur yetkazmaydigan juda yengil dog‘lar bo‘lishiga yo‘l qo‘yiladi. Ular eksport davri va naviga mos tarzda juda yaxshi rivojlangan shirin to‘qimaga va yumshoq po‘stga ega bo‘lishi lozim. Bir kilogrammdagi mevalar soni 65 tadan oshmasligi kerak.

(ii) I nav

Ushbu navga mansub quritilgan anjir sifatli bo‘lishi kerak. Ular o‘z navi va/yoki tijorat turiga xos xususiyatlarga ega bo‘lishi shart. Ular shirin va rang jihatidan deyarli bir xil bo‘lishi lozim. Ular eksport davri va naviga mos tarzda yaxshi rivojlangan shirin to‘qimaga va yumshoq po‘stga ega bo‘lishi kerak. Bir kilogrammdagi mevalar soni 120 tadan oshmasligi kerak.

---

[3] Namlik darajasi ushbu standart ilovasida ko‘rsatilgan ikkita usuldan biri yordamida aniqlanishi kerak.

[4] Ishlov berilmagan quritilgan anjirlar uchun 24 foiz (ishlov berilgan quritilgan anjirlar uchun 26 foiz) namlik darajasi yuzasidan Gretsiyaning maxsus e’tirozi.

STANDARTLAR INSTITUTI #TWY716KLBM - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

(iii) II nav

Ushbu navga yuqori navlarga kiritish uchun talablarga javob bermaydigan, ammo yuqorida ko‘rsatilgan minimal sifat talablarini qanoatlantiradigan quritilgan anjirlarni o‘z ichiga oladi.Po‘stlog‘idagi nuqsonlarga, agar ular iste’mol sifatiga ta’sir qilmasa, yo‘l qo‘yiladi.

III. O‘lchamlarga qo‘yiladigan talablar

O‘lcham bir kilogrammdagi mevalar soniga qarab belgilanadi. Har bir o‘lchamdagi mevalar soni quyidagi jadvalda ko‘rsatilgan: [5]

O‘lcham raqami	Bir kilogrammdagi mevalar soni
1	40 gacha
2	41 - 45
3	46 - 50
4	51 - 55
5	56 - 60
6	61 - 65
7	66 - 70
8	71 - 80
9	81 - 100
10	101 - 120
11	121 va undan ortiq

IV. Ruxsat etiladigan og‘ishlar bo‘yicha qoidalar

Har bir qadoqdagi ko‘rsatilgan sinf talablariga javob bermaydigan mahsulotlar uchun sifat va o‘lcham bo‘yicha ruxsat etiladigan og‘ishlar belgilanadi.

A. Sifat bardoshliligi

Ruxsat etilgan nuqson	**Ruxsat etilgan og‘ishlar (kamida 1000 g namuna birligida vazn bo‘yicha nuqsonli mevalar foizi)**		
	Oliy	**I nav**	**II nav**
Umumiy og‘ishlar	10	15	30
(1) Zarar (a) Hasharotlar	9	12	16
(b) Quyoshda kuygan (c) Yorilgan yoki shikastlangan (d) Haddan tashqari quritilgan (e) Boshqa o‘xshash nuqsonlar	8	10	25
(2) Mog‘orlagan yoki bijg‘igan	3	4	5
(3)Yot modda	0.5	0.5	0.5

_____

5 Gretsiyaning sifat tasniflarining kichik bo‘limlarini yaratgan deb hisoblagan o‘lchamlar jadvaliga qarshi e’tirozi

STANDARTLAR INSTITUTI #TWY716KLBM - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Tirik hasharotlar, qurtlar yoki boshqa zararkunanda hayvonlar uchun hech qanday og‘ishga yo‘l qo‘yilmaydi. Anjir ichida juda kam hollarda qolib ketgan changlatuvchi ari (Blastophaga psenes L.) nuqson deb hisoblanmaydi. Nuqsonlarning ta’riflarini ushbu standartning II ilovasida topish mumkin.

B. Mineral aralashmalar

Og‘irligi bo‘yicha 1 g/kg dan oshmasligi kerak.

C. O‘lcham og‘ishlari

Kamida 1000 g namunadagi quritilgan anjir uchun o‘lcham bo‘yicha ruxsat etiladigan og‘ishlar.

O‘lcham bo‘yicha vazn oralig‘i (grammda) quyidagicha:	
Raqam	eng katta va eng kichik anjirlar o‘rtasida
1 - 2	12
3 - 6	10
7 - 9	8
10 - 11	6

Yuqorida ko‘rsatilgan vazn oralig‘idan tashqariga chiqadigan quritilgan anjirlar kamida 1000 g bo‘lgan namunada umumiy vaznning 20 foizidan oshmasligi kerak.

V. Qadoqlash bo‘yicha qoidalar

A. Bir xillik

Har bir qadoqning tarkibi rang jihatidan bir xil bo‘lishi hamda faqat bir xil kelib chiqishga, navga va sifat naviga mansub mevalardan iborat bo‘lishi kerak.

Qadoq ichidagi mahsulotning ko‘rinib turgan qismi butun qadoq tarkibini, ayniqsa quritilgan anjirlarning o‘lchami va sifati hamda qadoqning o‘rtacha tarkibi jihatidan, ifodalashi kerak.

B. Qadoqlash

Quritilgan anjirlar mahsulotni tegishli darajada himoya qiladigan tarzda qadoqlanishi kerak.

Qadoq ichida foydalaniladigan materiallar yangi, toza va mahsulotga tashqi yoki ichki shikast yetkazilishining oldini oladigan sifatga ega bo‘lishi kerak. Savdo tavsiflari ko‘rsatilgan materiallardan, xususan qog‘oz va tamg‘alardan foydalanishga ruxsat etiladi, bunda bosma yozuvlar yoki markirovkalash zaharli bo‘lmagan siyoh yoki yelim yordamida bajarilgan bo‘lishi lozim.

C. Taqdim etish

STANDARTLAR INSTITUTI #TWY716KLBM - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Quritilgan anjirlar import qiluvchi mamlakatlarning og‘irlik bo‘yicha talablariga muvofiq katta yoki kichik qadoqlarda taqdim etilishi mumkin.

VI. Qadoqlash bo‘yicha qoidalar

Har bir qadoq yoki bo‘limli qadoq tashqi tomondan ko‘rinadigan, aniq va o‘chmaydigan tarzda belgilangan hamda bir tomonida guruhlangan holda quyidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi kerak:

A. Identifikatsiya

Qadoqlovchi) Nomi va manzil yoki rasmiy berilgan yoki
va (yoki)) qabul qilingan kod belgisi [6]
Dispetcher)

B. Mahsulotning turi

- Quritilgan anjir, zarur hollarda tijorat nomi yoki turi ko‘rsatilgan holda.

C. Mahsulotning kelib chiqishi

- Ishlab chiqarilgan mamlakati va ixtiyoriy ravishda yetishtirilgan hudud yoki milliy, mintaqaviy yoki mahalliy joy nomi.

D. Tijorat talablari

- nav;
- o‘lchami yoki bir kg.dagi anjirlar soni[7];
- hosil yili (ixtiyoriy);
- sof vazn yoki oldindan qadoqlangan paketlar soni (agar qadoq tarkibida shunday birliklar bo‘lsa, undan keyin sof birlik vazni ko‘rsatiladi);
- konservant (agar ishlatilgan bo‘lsa);
- Tabiiy usulda quritilgan (ixtiyoriy);
- Yaroqlilik muddati (ixtiyoriy).

E. Rasmiy nazorat belgisi (ixtiyoriy)

Qabul qilingan: 1996-yil
Yo‘l qo‘yiladigan xatolar jadvaliga tuzatish: 2004-yil

---

[6] *Bir qator Yevropa mamlakatlarining milliy qonunchiligi nom va manzilning aniq ko‘rsatilishini talab qiladi.*

[7] *Gretsiya delegati meva o‘lchami va bir kilogrammdagi mevalar sonini markirovka qilishni ixtiyoriy qoldirish tarafdori ekanligini bildirib, o‘zining alohida fikrini bayon qildi.*

STANDARTLAR INSTITUTI #TWY716KLBM - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

ILOVA: QURITILGAN ANJIRLARNING NAMLIK DARAJASINI ANIQLASH USULLARI

Standart tartibning I ilovasiga asoslanib

I USUL –Laboratoriya etalon usuli[8]

1. Ta’rif

Quritilgan mevalarning namlik miqdori ushbu ilovada ta’riflangan tajriba sharoitlarda aniqlangan massa yo‘qotilishi deb belgilanadi.

2. Tamoyil

Ushbu usulning tamoyili quritilgan meva namunasini 70°C ± 1°C haroratda va 100 mm simob ustunidan mm Hg oshmaydigan bosim ostida qizdirish va quritishdan iborat.

3. Jihoz

Quyidagi jihozlar bilan birgalikda odatdagi laboratoriya asbob-uskunalaridan foydalaniladi:

3.1 Elektr isitgichli termostatli pech: 70°C ± 1°C haroratni va 100 mm simob bosimni barqaror ushlab turish imkoniyatiga ega.

3.2 Qopqoqli idishlar: Korroziyaga chidamli metaldan tayyorlangan, diametri taxminan 8,5 sm bo‘lgan idishlar.

3.3 Qo‘lda yoki mexanik usulda ishlaydigan maydalagich.

3.4 Ekssikator: Namlikni yutuvchi samarali modda bilan to‘ldirilgan.

3.5 Aniq o‘lchovchi tarozi (analitik tarozi).

4. Sinov jarayoni

4.1. Namunani tayyorlash

Laboratoriya namunasidan taxminan 50 g quritilgan meva oling va uni go‘sht maydalagich yordamida ikki marta maydalang.

---

[8] *Ushbu usul AOAC: “Rasmiy tahlil usullari” (Official Methods of Analysis), XIII nashr, 1980-yil, 22.013 – “Quritilgan mevalardagi namlik, rasmiy yakuniy chora” (Moisture in Dried Fruits, Official Final Action) tomonidan belgilangan usul bilan bir xildir.*

STANDARTLAR INSTITUTI #TWY716KLBM - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

4.2 Sinov qismi

Idishga oldindan quritilgan, qopqog‘i va asbesti bilan birga tortilgan 2 g mayda maydalangan asbest[9] solinadi. Tayyorlangan namunadan taxminan 5 g olinadi va 0,01 g aniqlikkacha tortiladi.

4.3 Aniqlash

Namuna va asbestni bir necha ml issiq suv bilan yaxshilab namlang. Namuna va asbestni shpatel yordamida aralashtiring. Shpatelda qolgan namuna qoldiqlarini tozalash uchun uni issiq suv bilan yuving va bu qoldiqlar hamda suv idishning ichiga tushishini ta’minlang.

Ochiq idishni qaynayotgan suv hammomida suv to‘liq qurigungacha qizdiring. Keyin idishni yoniga qopqog‘ini qo‘ygan holda quritish shkafiga joylashtiring va 100 mm Hg oshmaydigan bosim ostida, 70 °C haroratda olti soat davomida quritishni davom ettiring; ushbu vaqt mobaynida quritish shkafi ochilmasligi kerak. Quritish jarayonida shkafga H_2SO_4 orqali o‘tkazib quritilgan havoning sekin oqimini yuborib turing. Metall idish quritish shkafining metall tokchasi bilan bevosita kontaktda bo‘lishi lozim. Quritish tugagach, idishni oling, darhol qopqog‘i bilan yoping va eksikatorga joylashtiring. Xona haroratigacha sovigandan so‘ng, yopiq idishni 0,01 g gacha aniqlikda torting.

5. Hisoblash va natijalarni ifodalash

Namuna namligini foiz hisobida aniqlash uchun quyidagi formula qo‘llaniladi:

$$\text{Namlik miqdori} = \frac{(M_1 - M_2)}{(M_1 - M_0)} \times 100$$

bu yerda:

M_0: qopqog‘i bilan birga va tarkibida asbest bo‘lgan bo‘sh idish massasi.
M_1: quritishdan oldin qopqog‘i bilan birga idish, asbest va sinov namunasi massasi, g.
M_2: quritishdan keyin qopqog‘i bilan birga idish massasi, g.

Natijalar verguldan keyin bir xona aniqligida ifodalanadi.

Takroriy aniqlashlar namlik miqdori bo‘yicha 0,2 % dan ortiq farq qilmasligi kerak.

---

[9] *Asbest o‘rniga avval xlorid kislotasi bilan yuvilgan va keyin suv bilan yaxshilab chayilgan quritilgan qumdan foydalanish mumkin. Ushbu usuldan foydalanuvchi tahlilchilar bu AOAC tartib-qoidasidan chetlanish ekanligini yodda tutishlari va bu haqda o‘z hisobotlarida qayd etishlari kerak.*

STANDARTLAR INSTITUTI #TWY716KLBM - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

II USUL - TEZKOR YOKI ODDIY USUL

1. Tamoyil

Elektr o‘tkazuvchanlik tamoyiliga asoslangan tezkor usul.

2. Jarayon

Rasmiy analitik kimyogarlar assotsiatsiyasining (AOAC) rasmiy usullari, 13-nashr (1980), 22.014 – Quritilgan meva namligini tekshirish vositasi (AOAC, Vashington, Kolumbiya okrugi) da tavsiflangan usulga amal qiling.

STANDARTLAR INSTITUTI #TWY716KLBM - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

ILOVA: QURITILGAN ANJIR UCHUN ATAMALAR VA NUQSONLARNING TA’RIFI

Standart tuzilmasining III ilovasi asosida

Zararlangan hasharot	- Hasharotlar va hayvon parazitlari tomonidan yetkazilgan shikastlanishlar yoki ko‘z bilan ko‘rinadigan hasharotlar hamda hasharotlar qoldiqlarining mavjudligi.
Mog‘or bosgan	- ko‘z bilan ko‘rinadigan mog‘or tolalari.
Bijg‘ish	- Fermentatsiya natijasida mahsulotning o‘ziga xos tashqi ko‘rinishi va/yoki ta’mi sezilarli darajada buzilgan shikastlanishlar.
Quyoshdan kuyishi	- Meva yuzasining uchdan bir qismidan ko‘prog‘i zararlangan.
Yorilgan yoki shikastlangan	- Meva uzunligining uchdan bir qismidan ko‘prog‘i zararlangan.
Me’yordan ortiq qurigan	- Ta’mi yo‘q, qattiq, rezinasimon konsistensiyaga ega mevalar
Yot modda	- Mahsulot tarkibiga xos bo‘lmagan har qanday modda yoki material.

STANDARTLAR INSTITUTI #TWY716KLBM - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI